

O'QUVCHILARNING SHEVAGA XOS SO'ZLARDAN FOYDALANISHIDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING ROLI VA UNI BARTARAF ETISHDA PEDAGOGIK YONDASHUV

Gulzira Rustamova

Andijon davlat pedagogika instituti

"O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18208642>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning o'quvchilar nutq madaniyatiga ta'siri, xususan shevaga xos birliklarning adabiy til me'yorlariga ko'chishi jarayoni tahlil qilinadi. Tilning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi hamda internet tili (tarmoq tili)ning shakllanishida ijtimoiy muhitning o'rni William Labovning sotsiolingvistik nazariyasi asosida yoritiladi. Shuningdek, David Crystal tomonidan ilgari surilgan internet tilining gibrud xususiyati va uning og'zaki-yozma nutqqa singib borishi izohlanadi. Tilshunoslar N. Mahmudov va A. Rahmonov qarashlari asosida shevaning adabiy til uchun tabiiy manba sifatidagi o'rni ko'rsatilgan holda, ta'lim jarayonida adabiy me'yorlarni egallashning ahamiyati asoslab beriladi. Pedagogik yondashuv sifatida Hymesning kommunikativ kompetensiya nazariyasi qo'llanilib, o'quvchilarda rasmiy va norasmiy nutq vaziyatlarini farqlash, shevaga xos shakllarni adabiy variantlarga moslashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: adabiy til, sheva, ijtimoiy tarmoqlar, tarmoq tili, sotsiolingvistika, internet tili, kommunikativ kompetensiya, William Labov, David Crystal, pedagogik yondashuv, nutq madaniyati, rasmiy va norasmiy nutq.

Kirish. Til-jamiyatning muhim ijtimoiy hodisalaridan biri, jamiyatning taraqqiyoti, madaniyati, ijtimoiy holati bilan chambarchas bog'liq.

Til jamiyatda muloqot vositasi sifatida xizmat qilish bilan birga ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar, tafakkur tarzini aks ettiradi.

Jamiyatdagi o'zgarishlar til taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar esa ana shunday tilimizga ta'sir etuvchi omillardan biriga aylangan.

Bugungi kunda hayotimizning katta qismini ijtimoiy tarmoqlar egallaydi.

Shu sababli bu jarayonda insonlar o'rtasida o'ziga xos kommunikativ til hodisasi kuzatilmoqda ya'ni internet tili, tarmoq tili ham kirib keldi.

Internet tili yoki tarmoq tili deb ataluvchi bu lingvistik hodisa tilshunoslikda alohida tadqiq etiluvchi yo'nalishga aylandi.

William Labov sotsiolingvistika nazariyasiga ko'ra, nutq shakli va til birliklarining tanlanishi ijtimoiy muhit bilan bevosita belgilanadi. U tilni faqat lingvistik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida o'rganishni taklif etgan. (William Labov)

Nima uchun tilshunoslar bu hodisani o'rganishi lozim, hozirgi zamonaviy yoshlar internet tilidan keng foydalanadi, ular o'rtasidagi asosiy muloqot vositasiga aylangan. Bu esa adabiy til me'yorlariga ta'sir qiluvchi yangi so'zlar, qisqartmalar, yangi shakllarni paydo qilmoqda.

Shuningdek ular tomonidan ayrim so'zlarni buzib talqin etilishi yoki noto'g'ri qo'llanilish holatlari kuzatilmoqda.

Bugungi kunda yoshlar foydalanuvchi Telegram, Instagram, TikTik, Youtube kabi ijtimoiy tarmoqlar kundalik muloqotda yetakchi o'rinni egallaydi.

Ushbu platformalarda nutq norasmiy, qisqartirilgan, shevaga xos va aralash shaklda qo'llaniladi.

Asosiy qism.

O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda yoshlar ulushi 65-70 foizni tashkil qiladi. Yosh toifasiga ko'ra 13-17 yoshlilar ya'ni maktab o'quvchilari 18-20 foizni tashkil etadi.

Ularning ijtimoiy platformalardan foydalanishi til madaniyatiga, og'zaki va yozma nutqida adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlarining ko'payishiga olib kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar uchun yangi muloqot muhiti, unda hududiy sheva orqali "o'ziga yaqinlik" yaratish, norasmiy muloqotga intilish, ommaboplik, tezkorlikka urg'u berish kuzatiladi. Oqibatda o'quvchilar nutqida tarmoq tili bu me'yorlashgan shakl sifatida qabul qilinmoqda.

Jumladan shevaga xos so'zlar ham.

D. Crystal ta'kidlaganidek, internet tili yozma va og'zaki nutq oralig'idagi gibrid shakl bo'lib, unda og'zaki nutqqa xos unsurlar, jumladan shevaga xos birliklar keng qo'llanadi. (David Crystal)

Bu holat esa o'quvchilarning nafaqat og'zaki muloqotiga yozma ishlariga ham ko'chmoqda.

Tilshunoslikda sheva adabiy tilning quyi shakli emas, balki uning tabiiy manbai sifatida qaraladi (N. Mahmudov, A. Rahmonov)

Biroq ta'lim jarayonida adabiy til me'yorlarini egallash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Muammo shevadan foydalanishda emas, balki uni nutqiy vaziyatga nomuvofiq qo'llashda namoyon bo'ladi.

Pedagogik yondashuv. Hymesning kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko'ra, o'quvchi nutqiy vaziyatga mos til birliklarini tanlay olishi kerak.

Dars jarayonida o'quvchilar xato qilayotgan shevaga xos so'zlarda avvalo o'qituvchi rasmiy va norasmiy nutq vaziyatlarini farqlashi, ijtimoiy tarmoq matnlarini adabiy tilga moslashtirish orqali bu ko'nikma shakllantiriladi.

Shu o'rinda Hymes nazariyasi haqida to'xtalsak,

Kommunikativ kompetensiya — bu nafaqat grammatik qoidalarni bilish, balki real hayotda tilni vaziyatga mos qo'llay olish qobiliyatidir.

Hymes nazariyasiga ko'ra, til bilish degani – “grammatika qoidalarini bilish” bilan cheklanmaydi. Inson qaysi vaziyatda qanday til birliklaridan foydalanishni bilishi kerak.

U quyidagi savollarga e'tibor beradi:

Nima deyish mumkin?

Bu gapni shu yerda aytish to'g'rimi?

Bu gapni kimga aytish mumkin?

Qaysi uslubda gapirish kerak?

Ongli yondashuv, didaktikaning onglilik tamoyiliga ko'ra, o'quvchi qoidani tushungan holda o'zlashtiradi. Pedagog bu vaziyatda shevaga xos so'zlarning adabiy variantlarini izohlab, ularning qo'llanish sabablarini ochib berishi lozim.

Navbatdagi yondashuv taqqoslash (kontrastiv), bunda shevaga xos so'zlar adabiy til birliklari bilan qiyoslab o'rgatiladi.

Shevada yozilgan matn:

“Uje yetvotti, wapshe vaqt yo‘q, tezroq bo‘la qolinglar.”

Adabiy shakli:

“Endi yetayapti, umuman vaqt yo‘q, tezroq bo‘la qolinglar.”

Taqqoslash yondashuvining afzalliklari

- ✓ Tahlilni chuqurlashtiradi
- ✓ Umumiylikni va farqni aniq ko‘rsatadi
- ✓ Ilmiy xulosani mustahkamlaydi
- ✓ Tizimli fikrlashni o‘rgatadi
- ✓ Kutilmagan bog‘lanishlarni aniqlaydi.

Yana bir yondashuv esa media olamidagi qisqa video, kontentlarni saralashga ham o‘rgatadi, pedagog ishonchli tarzda ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlarni saralab berishi, bunda ustozda ham media savodxonlik darajasi bo‘lish talab etiladi.

Blogger nutqini tahrirlash, ijtimoiy tarmoqdagi post va izohlarni tahlil qilish o‘quvchida darsga munosabatni ham o‘zgartira oladi.

O‘qituvchidan talab etiladigan yana bir muhim jihat pedagog o‘quvchi shevaga xos so‘zlardan foydalansa, bu nutqni keskin inkor etmasligi, uni kamsitmasdan, to‘g‘ri variantni ko‘rsatishi, adabiy nutqda o‘zi shaxsiy namuna bo‘lishi lozim.

Vygotskiy ta‘limda qo‘llab-quvvatlovchi muhit nutq rivojida muhim rol o‘ynashini asoslagan (L. S. Vygotskiy)

Xulosa. O‘quvchilar adabiy tilni o‘zlashtirishlari avvalo fikrini aniq va tushunarli ifodalashda muhim, chunki adabiy til me‘yorlari: grammatik jihatdan to‘g‘ri, leksik jihatdan boy, mantiqan izchil bo‘lishni talab etadi.

O‘quvchi jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun adabiy tilda so‘zlashish, yozish qobiliyatiga ega bo‘lishi muhimdir.

Bu o‘z o‘rnida ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi ham.

Ijtimoiy tarmoqlar o‘quvchilarning shevaga xos so‘zlardan foydalanishini faollashtirayotgan asosiy omillardan biri, bu holat sotsiolingvistik va medailingvistik qonuniyatlar bilan izohlanadi. Mazkur jarayonni baratarf etish o‘qituvchining kommunikativ, ongli, taqqoslash va media-savodxonlikka asoslangan pedagogik yondashuvlar orqali samarali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilshunosligi
 2. Mahmudov N. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2018.
 3. Rahmonov Sh. O‘zbek shevalari. – T.: Fan, 2015.
 4. Mirzayev I. Adabiy til me‘yorlari va nutq madaniyati. – T.: Akademnashr, 2019.
- Xorijiy manbalar:
5. Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia, 1972.
 6. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge, 2006.
 7. Hymes D. On Communicative Competence. – 1972.
 8. Vygotsky L. S. Thought and Language. – MIT Press, 1986.
 9. Thurlow C., Mroczek K. Digital Discourse. – Oxford, 2011